

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev	
Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari	108
M.M.Teshaboyev	
Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik	115

SIYOSAT

H.M.Rasulov	
Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida	120
K.X.Avazov	
Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	124
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining qaror topishi xususida	129
D.A.Mamajonova	
Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. ma'muriy, jinoyat va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish.....	133
I.A.Raximov	
"Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining-milliy demokratik institut sifatidagi o'rni"	138

TARIH

E.G.Radjabov	
Badiiy hamda san'at asarlarida o'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov talqini	142
B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov	
Ilk Temir davrida ko'mish marosimiga oid	148
X.S.Jumanazarov	
Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalar faoliyati tarixi.....	154
S.R.Tolibova	
O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo'nalishlari (Asean davlatlari misolida)	159
X.X.Azimov	
Qadimgi va ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo va Xitoy savdo aloqalari (Xitoy manbalari asosida)	167
K.S.Karimov	
Turkistonda mustamlaka huquqiy taksanomiyasi ta'sirida xalq sudyalari lavozimiga tayinlash tartiblari.....	171
N.Xudoyberdiyeva	
Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishi	176
F.U.Temirov	
Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va Sadridin Ayniyning publisistik faoliyati	179
M.H.Isamiddinov	
O'zbekistonning antik davr moddiy madaniyatining o'ziga xos tomonlari.....	183

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Omon Muxtor romanlariga chizgilar	188
M.H.Mamatov, P.M.Ahmadchonov	
Sayfiddin Muhammad Farg'oniy ijodida tasavvufiy tamoyillar	191
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniyning tarjimai holi va hayot yo'liga doir	195
G.H.Axmedova	
Ingliz adabiyotida jorj eliotning ijodi va tanqidiy realizm	200
G.V.Abdullayeva	
Topishmoq she'rlar va ularning badiiy-estetik funksiyasi	204

ILK TEMIR DAVRIDA KO'MISH MAROSIMIGA OID

О ПОГРЕБАЛЬНОМ ОБРЯДЕ В ПЕРИОД РАННЕЖЕЛЕЗНОГО ВЕКА

ABOUT THE FUNERAL RITE IN THE EARLY IRON AGE

¹Abdullayev Baxtiyor Manopovich¹Samarqand arxeologiya instituti, katta ilmiy xodim, tarix fanlari nomzodi²Kambarov Nasibillo Shukrulloevich²Farg'ona davlat universiteti doktoranti**Annotatsiya**

Ushbu tadqiqot Farg'ona vodiysining ilk temir davri ko'mish udumlarini Xonobod-1 yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqot natijalari va shu muammoni yorituvchi ilmiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish asosida taqdim etadi. Yodgorlikda ohirgi uch dala tadqiqotlari davomida ochilgan qabr qo'rg'onlarning xarakterli xususiyatlari alohida keltirilgan. O'rganilayotgan davr ko'mish marosimlari har bir qabrni tayyorlanishi hamda jasadni ko'milishi o'ziga xos bo'lganli ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье на основе результатов археологических исследований, проведенных на памятнике Ханабад-1 и критического анализа научной литературы, освещающей этот вопрос, представлены обряды погребения в Ферганской долине периода раннего железного века. В памятнике отдельно перечислены характерные особенности курганов, обнаруженных в ходе трех последних полевых исследований. Погребальный обряд изучаемого периода показывает, что подготовка каждой могилы и захоронение усопшего имели свою особенность.

Abstract

This article, based on the results of archaeological research conducted at the Khanabad-1 monument and a critical analysis of the scientific literature covering this issue, presents burial rites in the Fergana Valley of the Early Iron Age. The monument separately lists the characteristic features of the mounds discovered during the last three field surveys. The funeral rite of the period under study shows that the preparation of each grave and the burial of the deceased had its own peculiarity.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, ilk temir davri, qabrqo'rg'on va ko'mish udumlari.

Ключевые слова: Ферганская долина, ранний железный век, курганы и погребальный обряд.

Key words: Fergana Valley, early Iron Age, burial mounds and funeral rites.

KIRISH

2020-yilda Andijon viloyatidagi Xonobod tog'etaklarida arxeologik yodgorliklar borligi aniqlanib, bu hudud qo'shni Qirg'iziston bilan chegaradosh. Vaholanki, u yerdan Qoradaryo oqib o'tib, Sirdaryoga quyiladi. Ma'lumki, antik davrning eng uzun sun'iy sug'orish inshootlari – Shahrixonsoy va Andijonsoy shu daryodan boshlanadi. O'z davri uchun bunday ulug'vor kanallarni qurish jarayonlari ilk temir va ilk antik davrda Farg'ona urbanizatsiyasining jadal rivojlanishiga olib keldi [1:116]. Bularning barchasi Xonobod tog' etaklari ancha zich joylashgan hudud va ilk temir davridagi qadimgi Farg'onaning ko'chmanchi va o'troq madaniyatlarining o'ziga xos aloqa zonasi ekanligidan dalolat beradi. Yuqorida aytilganlarning barchasi hududni dastlabki arxeologik nazorat-kuzatuv ishlarini olib boorish zaruratini ko'rsatdi. Surishtiruvlar natijasida, Qashqayo'l manzili yaqinida adirlar zanjiri topildi – bu qadimiy qabristonlardan iborat bo'lib, u yerda mahalliy aholi xom g'isht ishlab chiqarish uchun qazish paytida qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan sopol idishlarni topishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adir tizmasini vizual ko'zdan kechirish chog'ida so'nggi 10 yil davomida mahalliy aholi tomonidan maishiy ehtiyojlar uchun olib borilgan qazish ishlari natijasida yodgorlikning g'arbiy tomoni ancha vayron bo'lganligi aniqlandi. Zamonaviy yer yuzasidan 15-20 m balandlikdagi adir tepaligining g'arbiy "qirqimini" o'rganish jarayonida uning yuqori chetida tuproq qatlami (qalinligi 0,5-2 m) ostida o'rta kattalikdagi toshlarning gorizontaal zanjiri shimoldan janubga yo'naltirilgani aniqlandi. Bu gorizontaal toshlar qatori janubga bir oz pasaygan holda, "qirqimning" 60-65 m gacha uzunligida aniqlandi. Bunday holat esa Eylaton madaniyatiga xos bo'lgan qabristonlarda

TARIX

kuzatilgan. Zero, “qirqim” ning yuqori chetining oʻrta qismida boʻyoqsiz yarim sferasimon qoʻlda yasalgan kosa topilgan. Natijada, 2020–2021 yillarda butun dunyo pandemiyasi kuchayganligi tufayli arxeologik guruhning shaxsiy mablagʻlari hisobidan dala tadqiqot ishlari olib borildi. Faqat 2022–yildan boshlab, oldingi dala mavsumlari taqdimotiga koʻra, ikki yillik amaliy loyiha tasdiqlangan. Oʻsha davrdan boshlab Xonobod togʻ etaklaridagi qabristonda keng koʻlamli arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda.

2020–2022 yillari arxeologik qazishmalar davomida 530 kv m dan ortiq maydon, asosan qabristonning yuqori tosh qoplamasi ochilib oʻrganildi. Qazishmaning uzunligi 60 m, kengligi 5-15 m, chuqurligi 1-2 m boʻlib, janubi-sharqdan shimoli-gʻarbga yoʻnaltirilgan. Natijada, qadimiy qabristonning maydoni qazishma maydonidan tashqariga chiqishi qayd etildi, chunki tosh yotqizilari qazishmaning uchala (shimoliy, sharqiy va janubiy) tomon qirqimlariga oʻtgan. Jami 8 ta qabr qazilib oʻrganilgan. Shuningdek, kamida 20 ta qabr izlari topilgan, bunga 25 ta butun va arxeologik butun qoʻlda yasalgan kosalarining topilishini keltirish mumkin. Arxeologik butun barcha idishlar B. N. Boliyev tomonidan qayta tiklandi va Andijon davlat muzeyida namoyishga tayyorlandi. Topilmalar orasida sopol idishlardan tashqari turli xil madanlardan yasalgan har xil shakl va hajmga ega munchoqlar, temir, bronza va qimmatbaho metallardan yasalgan taqinchoqlar mavjud.

Toʻplangan material katta boʻlgani uchun ular bilan bogʻliq boʻlgan muammolarni yoritish keng koʻlamli yondashuvni talab qiladi, shu tufayli biz ushbu maqolada Eylaton tipidagi dafn anʼanalarining oʻziga xosligini, qabrlar va ularni tosh qoplamasining qurilish konstruksiyasi, skeletning joylashuvini hamda sopol buyumlarning tavsifi va boshqa Eylaton madaniyati qabristonlaridagi shunga oʻxshashlar bilan qiyosiy tahlil natijalarini koʻrsatish bilan cheklanamiz.

Shunday qilib, topilgan qabrlarning xususiyatlarini tavsifiga oʻtamiz.

Chim qatlami olib tashlangach va qazish ishlari 0,5-1,2 m ga chuqurlashtirilgandan soʻng, qadimiy yodgorlik ustidagi asosiy tuproq qalinligiga mos ravishda, dastlabki qazuv obyektning gʻarbiy qismida 10x8 m maydonda tosh qoplama yotqizilganligi aniqlandi. Tosh qoplamasini tozalash jarayonida ular orasidan geometrik va oʻsimtasimon naqshlari bilan bezatilgan qoʻlda yasalgan sopol idishlar parchalari topila boshladi. Tosh qoplamasining joylashuvi suratga olinib, maydon toshlardan tozalangach, uning ostida 15-20 sm qalinlikdagi tuproq qatlami orasidan ikkita tosh oʻroq [1. 241-242]. Oʻroqlarning saqlangan uzunligi 9-12 sm, kengligi 2-4,5 sm va qalinligi 0,2-0,8 sm.

Maʼlumki, Fargʻona vodiysida tosh oʻroqlar Chust va Shoʻraboshot dehqonchilik madaniyatlariga xos boʻlgan, lekin Eylaton madaniyati yodgorliklarida qayd etilmagan. Xonobod tosh oʻroqlari oʻlchamlari boʻyicha Chust va Shoʻraboshot madaniyatlariga oid manzilgohlardan topilgan oʻroqlarga mos keladi, ularning oʻrtacha oʻlchami 15x4,2x0,8 sm [10. 33, 36]. Umuman olganda, Chust va Shoʻraboshot madaniyatlari oʻrtasida juda koʻp umumiylik mavjud boʻlib, bu oʻxshashliklar nafaqat bir-biriga juda yaqin, balki oʻzaro uzviy bogʻliq parallellarga ega qoʻlda yasalgan va boʻyoq bilan naqshlangan kulolchilik mahsulotlarida yaqqol namoyon boʻladi. Fargʻonashunos olim klassiklaridan biri Shoʻraboshot madaniyatining kelib chiqishi bronza davri Chust madaniyatiga borib taqaladi, garchi ular oʻrtasidagi toʻgʻridan-toʻgʻri taraqqiyot va oraliq aloqani aniqlash hali imkoni boʻlmagan, deb taʼkidlaydi [9. 61]. Ammo 2023-yilda Xonobod shahridan 6 km gʻarbda joylashgan Andijon viloyati Qoʻrgʻontepa tumani Sultonobod massivida olib borilgan tadqiqot ishlarimiz natijalari shuni koʻrsatdiki, Chust (Jannatmakon) va Shoʻraboshot (Sultonobod 1 va 2) madaniyatlariga oid manzilgohlar yaqin-atrofdan – bir-biridan 50 m uzoqlikda joylashgan.

Tosh qoplamasining ikkinchi qatori orasidan, qazishmaning sharqiy qismida yarim xalqa shaklida oʻrta kattalikdagi toshlardan iborat qoplama topilgan. Toshli yarim xalqa qoplamaning gʻarbiy chekkasi jar chetida uzilib ketadi. Qabr atrofidagi xuddi shunday aylana tosh xalqalari Eylaton madaniyati qabristonlaridagi koʻmish anʼanalariga xos boʻlgan [6. 173, 7.73]. Qazishmaning sharqiy chekkasida tozalash ishlari olib borilganda, balandligi 8 sm, labining diametri 21 sm boʻlgan butun yarim sferasimon qoʻlda yasalgan va boʻyoq bilan naqshlangan kosa topildi. Idish atrofi tozalaganda M-1 qabrning ogʻzi 20-40 sm balandlikdagi oʻrta kattalikdagi toshlardan iborat qoʻrgʻoncha aniqlandi.

M-1 qabrida dafn etishning oʻziga xosligi shundaki, marhum (skeletining uzunligi 1,58 m) orqa tomoniga yotqizilgan va sharqdan gʻarbga yoʻnaltirilgan, keyin u ketma-ket 20 sm qalinlikdagi

tuproq va tosh qatlamlari bilan to'ldirilgan. Bu holat ham Eylaton madaniyatining dafn marosimlariga mos keladi [7. 74].

Tosh xalqa ichida keyingi tozalash ikkinchi arxeologik jihatdan buzilmagan yarim sferasimon qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan kosa topilishini ta'minladi. Idish gardishining diametri 15 va balandligi 11 sm bo'lgan. Uning oldida ochilgan M-2 qabri ham cho'zilgan oval shakliga ega bo'lgan. Qabr chuquri quyidagi o'lchamlarga ega: tepa bo'ylab uzunligi 2,0 m, pastki qismida esa 1,85 m, kengligi mos ravishda 55-60 va 40-50 sm, chuqurligi 0,8 m. Skeletning uzunligi 1,53 m saqlangan. Marhum chalqancha yotqizilib, sharqdan g'arbga yo'naltirilgan. Shundan so'ng, chuqur ketma-ket 20-30 sm qalinlikdagi tuproq va tosh qatlamlari bilan to'ldirilgan.

Qazishma markazida, toshlar orasidan diametri 50x60 sm bo'lgan yumaloq shakldagi vaqtinchalik (ehtimol marosim) o'choq izlari topilgan. Uning o'lchamlari olinib o'rni tozalangach, ostida oldinroq dafn etilgan jasad qabri og'zidagi inventarlar – ikkita kosa topildi. Ularning bittasi yarim sferasimon qo'lda yasalgan naqshsiz kosa (diametri 20-21 va balandligi 8 sm), ikkinchisi labi to'g'ri qirrali charxin kosa (diametri 12,5 va balandligi 7,5 sm) bo'lib chiqdi [1. 247].

NATIJA VA MUHOKAMA

Idishlar atrofidagi tosh qoplama to'la olib tashlagach (2022), sopol inventarlarning o'ng tomonida uchinchi M-3 qabri izlari chiqq boshladi. Qabr tepasida kichik va o'rtacha toshlardan qo'rg'oncha mavjudligiga qaramay, kirish chuqurining devorlarini darhol aniqlashning iloji bo'lmadi. Shuningdek, qabr xonasi ichida tosh va tuproq qatlamlarining ketma-ket yotqizilishi buzilganligi qayd etilgan – ular aralashib ketgan hamda ular orasida bosh suyagining bo'laklari topilgan. Yarim metrdan oshiq chuqurlashgandan keyingina uzunligi 1,85 m, eni 70-75 sm, chuqurligi 1,25 m saqlanib qolgan qabr devorlari topildi. Ko'milgan odam ham boshi bilan g'arbga yo'naltirilib, chalqancha yotqizilgan. Biroq, avvalgilaridan farqli o'laroq, marhumning oyoqlari "chavandoz" holatida egib qo'yilgan. Skeletning yuqori qismi qattiq shikastlangan – bosh suyagi deyarli saqlanmagan (ba'zi qismlari bundan mustasno), ikkala qo'l va qovurg'a suyaklarining ko'p qismi yo'qolgan. Yuqorida aytilganlarning barchasi M-3 qabri o'sha davridayoq talon-taroj qilingan deb takidlashga imkon beradi. Shu sababli, skeletning uzunligi taxminan - 1,52-1,54 m deb taqdim etilmoqda. Ammo antropologning fikriga ko'ra, pastki oyoq-qo'llarning uzunligiga asoslanib, skeletning uzunligi 1,65 m dan oshmagan deb taxmin qilish ham mumkin, bosh suyagining "incisura ischiadica major"¹ mavjudligi esa skelet ayolga tegishli ekanligini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, hatto o'g'irlikdan keyin saqlanib qolgan inventar anjomlar ham M-3 qabrining boshqa ochilgan qabrlarga qaraganda ancha boy ekanidan dalolat beradi. Chunki qabrdan ko'plab turli mineral va temirdan yasalgan taqinchoqlar (munchoqlar, sirg'alar, uzuklar va to'g'nog'ichlar) bilan bir qatorda rangli (bronza) va parcha-parcha qimmatbaho (oltin) metallardan ishlangan buyumlar olingan. Bularning barchasi, albatta, marhumning juda yuqori ijtimoiy mavqe egasi ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, marhumning "chavandoz" maqomidagi holati, u hayoti davomida mohir suvoriy bo'lganligini ko'rsatadi. Bu hol esa Amazonkalar yoki ko'chmanchi qabilalarda chavandoz ayollarning erkaklar bilan bir qatorda turli janglarda ishtirok etishi haqida qadimiy solnomalardagi ma'lumotlariga mos keladi.

M-4 qabr qo'rg'oni ko'p jihatdan boshqalardan ajralib turardi: u diametri 8-9 m, balandligi 45 sm gacha bo'lgan, o'rta va katta toshlardan yotqizilgan katta dumaloq qo'rg'oncha ostida joylashgan. Tayyorlanishiga ko'ra, qabr uzun oval shakliga ega chuqur edi. Qabrning toshlardan iborat qobiq ostidagi yer satxidan chuqurligi 1,3 m bo'lib, chuqurning og'zi bo'ylab uzunligi 2,7 m, pastki qismida esa – 1,9 m, kengligi (bosh chanog'idan oyoqlarigacha) mos ravishda 0,81-1,4-0,75 m, 55-60-50 sm. Qabrning shimoliy va janubiy devorlari markazida mos ravishda 55, 65 sm chuqurlikda yasalgan tokchalarda alohida joylashgan ikkita yarim sferasimon qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan kosa qo'yilganligi alohida qiziqish uyg'otadi. Qabrda o'g'irlik izlari qayd etilmagan, ammo yuqorida ko'rsatilgan ikkita kosadan tashqari boshqa buyumlar topilmadi.

M-4 qabrining o'ziga xosligi shundaki, marhum bukchaytirilgan holatda o'ng tomoniga yotqizilib, boshi g'arbga yo'naltirilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, dafn etilgan skeleti boshqa ochilgan qabrlardagilarga qaraganda ancha yaxshi saqlangan. Skelet qabr chuqurining sharqiy yarmiga, bosh suyagi esa markazga notabiiy holda, yani bosh chanoqning yuqori qismi bilan

¹ Bu ta'rif J.Buikstra va D.Ubelaker metodiga asoslanadi [13. 18].

TARIX

yelkalariga tutashtirilgan! Shu sababli, skeletning uzunligi taxminan ko'rsatilgan (1,62 m). Chuqurning markazdan g'arbiy devorigacha bo'lgan 90 sm bo'shliq asosan katta toshlar (diametri 45-60 sm) va qisman tuproq qatlami bilan to'ldirilgan. Keyinchalik, chuqur tuproq va o'rta va kichik o'lchamdagi toshlar bilan qatlam-qatlam to'ldirilgan.

Bukchaytirilgan holda jasadni qabrga qo'yish odatda faqat bronza davri uchun xos bo'lgan [10. 16, 4. 134], ammo nega bunday arxaik an'ana ilk temir davri qabrida takrorlangan – noyob ilmiy junboq! Qolaversa, marhum chuqurga bukchaytirilgan holatda qo'yilgan bo'lsa, nega boshqa qabrlarga qaraganda nisbatan chuqurroq va shunchalik uzun qabr ochish kerak edi? Bu, shubhasiz, Eylaton madaniyatidagi Xonobod variantining dafn marosimlarida o'z aksini topgan maxsus ijtimoiy tabaqalanishning mavjudligi bilan bog'liq, chunki bunday dafn an'analari ushbu madaniyatning boshqa qabristonlarida uchramagan.

M-5 qabri shimoli-sharqdan janubi-g'arbga yo'naltirilgan burchaklari aylanasimon to'g'ri to'rtburchak shakldagi chuqur bilan ifodalanadi. Ustida balandligi 30-35 sm bo'lgan, yirik va o'rta kattalikdagi toshlardan tashkil topgan qo'rg'oncha qoplab turgan, bu qabrning yaxshi saqlanganligidan darak berardi. Biroq, uning ochilishi shuni ko'rsatdiki, chuqurdagi toshlar va tuproq qatlamlari aralashgan bo'lib chiqdi. Qizig'i shundaki, ikkita yarim sferasimon qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan kosa (biri diametri 11,5 sm va balandligi 9 sm, ikkinchisi diametri 16 sm va balandligi 8 sm) ushbu tosh va tuproq aralashmasining markazida joylashgan edi.

Qabrning chuqurligi 1,0 m, tepa bo'ylab uzunligi 2,05 m, pastki qismida esa 1,85 m, kengligi mos ravishda 45-60 sm, 50-80 sm, skeletning uzunligi 1,58 m. O'sha davrning o'zidayoq bu qabr ham o'g'irlangan bo'lishi mumkin, chunki qabr kameralari odatda tosh va tuproq bilan qatlam-qatlam qilib to'ldirilgan. Shu bilan birga, dastlabki ikki M-1 va M-2 qabrlari uchun juda ko'p, turli minerallardan yasalgan munchoqlar hamda temir taqinchoqlar olingan – M-5 qabrida esa bu kabi buyumlar juda oz qayd etilgan.

M-6 qabr qo'rg'onining boshqa qablardan farqi shundaki, uning chuqurligi bor-yo'g'i 0,6 m. Boshqa xususiyatlari esa keltirilgan qabrlar bilan o'xshash. Qabr yuzasi tosh va tuproq aralashmasidan iborat, biroq ustida tosh qo'rg'oncha qayd etilmagan. Qabr yuzasining janubi-g'arbiy tomonidagi toshlar orasidan, skeletning chap yelkasiga yaqin joyda diametri 14 sm, balandligi 8,5 sm bo'lgan, tubi yassi yarim sferasimon qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan kosa topilgan. Dafn xonasi qatlamlab qalinligi 15-20 sm qalinlikdagi tuproq va mayda toshlar (diametri 7-10 sm) bilan to'ldirilgan, qabr chuqurining yuqori qismida asosan o'rta va katta hajmdagi toshlar qo'yilgan. Qabr chuqurining uzunligi 1,85 m, kengligi 55-45 sm, skeletning uzunligi 1,6 m bo'lgan. Bu qabrda ham jasad chalqancha yotqizilgan, oyoqlari cho'zilib, qo'llar ikki yoniga briktirilgan va bosh ostida tosh yostiq bo'lganligi tufayli bosh chanog'i oyoqlarga egilgan. Jasadni bu tarzda yotqizish Eylaton madaniyatining dafn marosimlarida Oqtom bosqichidan boshlab foydalanilgan [5. 79]. Skeletning saqlanishi M-3, M-5 va M-7 qabrlariga qaraganda bir oz yaxshiroq. Bu, ehtimol, suyak qoldiqlari erkak kishiga tegishli bo'lganligi bilan bog'liqdir, chunki jasad bilan birga qo'yilgan inventarlar orasida ayol taqinchoqlari qayd etilmagan.

M-7 qabri shimoli-sharqdan janubi-g'arbga yo'naltirilgan. Undagi dafn etish an'anasining o'ziga xos xususiyati shundaki, qabr chuqurini to'ldirishda tosh ishlatilmagan. Qabr xonasi to'laligicha tuproq bilan to'ldirilgan bo'lib, bu Xonobodagi butun tadqiqot davrida birinchi marta qayd etilgan. Biroq, M-7 qabrining tepasi boshqa qablardagi kabi o'rta va katta hajmdagi toshlar bilan qoplangan. Umuman olganda, qabrni tuproq bilan to'ldirish ilk antik davrdagi ko'chmanchi madaniyat vakillari o'rtasida ham muomalada bo'lgan [2. 190].

M-7 qabri chuqurining keyingi xususiyati shundaki, u juda tor va chuqur qurilgan: uzunligi 1,8 m, bosh tarafida kengligi 40 sm, markazida – 55 sm, oyoq tomonida – 35 sm, chuqurligi 1,4 m – juda chuqur! Skeletning uzunligi 1,58 m. Qabrning janubiy devorining markazi yaqinrog'ida qabrning polidan 50 sm balandlikda maxsus tokcha o'yilgan bo'lib, unda ikkita charxda yasalgan kosa joylashtirilgan – bittasini gardishining diametri 22 sm va balandligi 10,8 sm, ikkinchisining diametri 16 sm va balandligi 7,8 sm. Bu idishlarning kattasi mil.avv. III asrgacha mavjud bo'lgan klassik Eylaton charxin kosasiga to'g'ri keladi [8. 84-85].

Odatdagidek jasad orqa tomoniga yotqizilgan, lekin oyoqlari chalishgan – o'ng oyoq chapini ustiga tashlangan. Qo'llarning holati ham ajralib turadi, bu yerda chap qo'l ko'kragiga bukilib, kafti oyoqlarga qaratilgan. Shu bilan birga, o'ng qo'lining kafti chapining chig'anog'iga yo'naltirilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, skelet ostida bir nechta tekis toshlar qayd etilgan: bosh ostida, yelka kuraklari ostida, tos suyagi ostida va tizzalarning ikkala tomonida o'z o'rnini mustahkamlab turishi uchun kattaroq toshlar qo'yilgan.

2022 yilgi dala mavsumining o'ziga xosligi shundaki, ochilgan qabrlar orasidan kenotaf - M-8 qabri topilgan. Qabr tepasi diametri 2-3 m, balandligi 30-40 sm tosh qo'rg'oncha bilan qoplangan. Uning ostida uzunligi 1,8 m, eni 60-75 sm, chuqurligi 0,8 m bo'lgan qabr kamerasi bo'lgan. Bu yerda ham M-7 qabridagidek, qabr kamerasi butunlay tuproq bilan to'ldirilgan, janubiy devorning markazi va deyarli pol oldida o'yilgan tokcha bo'lib, u yerda yarim sferasimon qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan kosa topilgan. Nafaqat Farg'ona, balki butun Markaziy Osiyoning qadimiy tarixida bunday kenotaflar aksariyat hollarda ko'chmanchi madaniyatlar qabristonlarida uchraydi [2. 189]. Bu ehtimol qandaydir sababga ko'ra jangchining jasadini yo'qotilishi bilan bog'liq bo'lgan.

Shunday qilib, 2020-2022-yillarda "Xonobod-1" qabristonida o'tkazilgan dala tadqiqotlari natijasida mil.avv. I ming yillik o'rtasi bilan sanalangan qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan va charxda tayyorlangan sopol kompleksi qo'lga kiritildi. Takidlash lozimki, Eylaton madaniyatiga oid Xonobod qabristonida birinchi marta qo'lda yasalgan va o'ziga xos bo'yoq bilan naqshlangan idishlar topildiki, ularning ornamentatsiyasida ko'chmanchilarning sof naqsh (bir qator yirik uchburchaklar) lari o'troq madaniyatlariga oid element (geometrik va o'simlik naqshlari bilan to'ldirilgan romblar) lar bilan boyitilgan. Shu bilan birga, qabristonning tosh qoplamalari orasida tosh o'roq parchalari kabi sof o'troq madaniyatlariga xos xunarmandchilik mahsulotlari qayd etilgan. Biroq, Xonobod sopol kompleksini aksariyat idish naqshlarida Sho'raboshot madaniyatining bezak elementlari boyitib kiritilgan bo'lsada, qabriston tosh qoplamasi orasida tosh o'roqlar topilgan bo'lsada, bu yerdagi qabrlar tuzilishining o'ziga xosligi hamda umuman dafn udumlari g'arbiy va janubi-g'arbiy Farg'ona vodiysining Oqtom, So'fon va Qo'ng'ay mozorlarida kuzatilgan ko'mish an'alarini aniqlangan turlariga mos keladi. Shubhasiz, vodiyning sharqida bukchaytirib yotqizilgan jasadli qabr topilganligi, shuningdek, marhumsiz, lekin o'rganilayotgan tarixiy davr dafn qilishning barcha marosim talablariga rioya qilingan holda qabr xonasi shakllantirilgani alohida qiziqish uyg'otadi.

XULOSA

Yuqorida aytilganlarning barchasi ushbu mintaqaning tog' etaklarida Eylaton madaniyati ko'chmanchilarining o'ziga xos evolyutsion jarayonini ko'rsatadi, bu nafaqat ushbu davrdagi ko'chmanchilar va o'troq qabilalarning turli elementlarini, balki qadimgi madaniyatlarning dafn etish an'alarini ham o'z ichiga oladi. Dala tadqiqotlarining bu natijalari ko'chmanchi Eylaton madaniyatiga oid Xonobod qabristonining merosi naqadar boy ekanligini ko'rsatadi. Yuqorida keltirilganlar shuni aytishga imkon beradiki, Xonobod-1 qabristoni o'zining maydonining ko'lami jihatidan, naqshlarga boy sopollari, turli madan va metallardan yasalgan taqinchoqlariga ko'ra, Eylaton madaniyatning yirik markaziy qabristonlaridan biri bo'lishi mumkin.

Maqola IL -462105791-sonli "Xonobod tog' etaklarida (Andijon viloyati) arxeologik obyektlarni o'rganish orqali 3D arxeologik xarita va elektron ma'lumotlar bazasini yaratish" loyihasi doirasida tayyorlangan. Qazuv-tadqiqot ishlarida Samarqand arxeologiya instituti boshchiligida Farg'ona davlat universiteti va Andijon davlat universitetining magistr va bakalavr talabalari ishtirok etishdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев 2017 – Абдуллаев Б.М. Урбанизационные процессы в античной Фергане // История и археология Турана. Самарканд, 2017. № 3. С. 113-120.
2. Бернштам А. Н. Историко – археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА, № 26. Москва-Ленинград: Академия наук СССР, 1952. 343 с.
3. Гамбург, Горбунова 1957а – Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Новые данные о культуре эпохи бронзы Ферганской долины // СА. Москва: Наука, 1957а. № 3. С. 130-135.
4. Гамбург, Горбунова 1957б – Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Ак-тамский могильник // КСИИМК. Вып. 69. Москва: Наука, 1957б. С. 78-90.
5. Горбунова 1961 – Горбунова Н.Г. Кунгайский могильник // АСГЭ. Вып. 3. Ленинград: ГосЭрмитаж, 1961. С. 171-194.
6. Горбунова 1969 – Горбунова Н.Г. Суфанский могильник // АСГЭ. Вып. 11. Ленинград: ГосЭрмитаж, 1969. С. 72-91.

TARIX

7. Горбунова 1970 – Горбунова Н.Г. О локальных особенностях в культуре древней Ферганы // СА. Москва: Наука, 1970. № 1. С. 77-86.
8. Заднепровский 1960 – Заднепровский Ю.А. Археологические памятники южных районов Ошской области. Фрунзе: Академия наук Кирг.ССР, 1960. 176 стр.
9. Заднепровский 1962 – Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. Вып. 118. Москва-Ленинград: Академия наук СССР, 1962. 328 стр.
10. Окладников А. П. Предварительный отчет об исследовании памятников каменного и бронзового веков в Таджикистане летом 1954 года // Археологические работы в Таджикистане в 1954 году. Сталинабад: Академии наук Таджикской ССР, 1956. С. 5-18.
11. Abdullaev, Kambarov 2021 – Abdullaev B.M., Kambarov N.Sh. Xonobod yodgorligida olib borilgan tadqiqotlarning dastlabki natijalari // *International conference: "The history of the Fergana valley in new researches"*. Section 1: Archeology and Ethnology of the Fergana Valley. 2021. В. 233-249. <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1299>
12. Buikstra, Ubelaker 1994 – Buikstra J., Ubelaker D. Standarts for date collections from human skeletal remains // *Proceeding of a seminar at the Field Museum of natural history, organized by Jonathan Haas*. Arkansas, 1994. 206 p.